



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRINING
BUYRUG‘I**

20 24 yil “ 04 ” oktabr

№ 310

Toshkent sh.

**O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining
“Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini
qoplash bo‘yicha reimbursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash
to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son qarori
ijrosini ta‘minlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimbursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son qarorini ijrosini tashkil etish maqsadida **buyuraman:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kasalliklarni ambulator sharoitda davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimbursatsiya dasturi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash to‘g‘risida” 2024-yil 2-oktabrdagi 619-son qarori ijro uchun qabul qilinsin.

Kasalliklarni ambulator sharoitida davolash uchun ishlatiladigan va Reimbursatsiya dasturiga kiritilgan dori vositalari ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. Tibbiy sug‘urta boshqarmasi (Sh.Almardanov), Tibbiy yordamni tashkillashtirish departamenti (U.Gaziyeva) hamda Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasi (Z.Ermatov):

ikki oy muddatda reimbursatsiya dasturini davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlari joriy etilgan hududlarda bosqichma-bosqich yo‘lga qo‘yilishini ta‘minlansin;

bunda, aholiga ambulator tibbiy yordam ko‘rsatish samaradorligini oshirish, sohaga bosqichma-bosqich davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etish hamda kasalliklarni davolashda dori vositalari xarajatlarini qoplash bo‘yicha reimbursatsiya dasturini joriy etish;

shifokor tomonidan reimbursatsiya dasturiga kiritilgan dori vositalarini tayinlashi;

shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retsept asosida dorixonalar tomonidan dori vositalarini bemorlarga bepul berishi;

elektron retsept asosida dorixonalar tomonidan bemorlarga berilgan dori vositalari qiymatini Davlat budjèti mablag‘lari hisobidan qoplanishini ta‘minlansin.

3. Yuridik bo‘lim bir oy muddatda manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda normativ-huquqiy hujjatlarga ushbu qarordan kelib chiqqan holda tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish choralari ko‘rilsin.

4. Nazorat inspeksiyasi (A.Alijanov) reimbursatsiya dasturi joriy qilingan hududlarda **har oyda** rejaga muvofiq shifokor tomonidan rasmiylashtirilgan elektron retseptlarning haqqoniliygini tekshirish choralari ko‘rsin.

5. “Farmatsevtika mahsulotlari xavfsizligi markazi” davlat muassasasi (A.Temirov) Reimbursatsiya dasturi asosida beriladigan dori vositalarini chakana savdoda mavjudligi (defektura) yuzasidan doimiy monitoring o‘tkazib borsin hamda monitoring natijalarini har oyning 5-sanasiga qadar Davlat tibbiy sug‘urtasi jamg‘armasiga taqdim etilishini ta‘minlasin.

6. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar sog‘liqni saqlash boshqarmalari davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini hududlarda bosqichma-bosqich joriy qilishda reimbursatsiya dasturini amaliyotga tatbiq qilish chora-tadbirlarni amalga oshirsin.

7. Matbuot xizmati (F.Sanayev) davlat tibbiy sug‘urta mexanizmlari, shu jumladan reimbursatsiya dasturini joriy qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalari orqali keng yoritish choralari ko‘rsin.

8. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o‘rinbosari F.Sharipov zimmasiga yuklansin.

Vazir v.b.



A. Xudayarov

**Соғлиқни сақлаш вазирининг
4 октябрдаги 310-сонли буйруғига
илова**

**Касалликларни амбулатор шароитида даволаш учун ишлатиладиган ва (реимбурсация)
дастурига киритилган дори воситалари рўйхати**

Т/р	Халқаро патентланмаган номи	Дори шакли
I. Меъда-ичак тизими патологияларини даволаш учун қўлланиладиган воситалар		
<i>Протон насос ингибиторлари</i>		
1	Омепразол	капсула 10 мг; 20 мг, 40 мг
II. Периферик адренергик жараёнларга таъсир қилувчи воситалар		
<i>Астмага қарши ва ўпка сурункали обструктив касаллигида қўлланиладиган воситалар</i>		
2	Сальбутамол	аэрозоль 100 мкг/доза 7 гр 200 доза; аэрозоль 100 мкг/200 доз
III. Эндокрин тизими патологияларини даволаш учун қўлланиладиган воситалар		
<i>Қандсиз диабетга қарши воситалар</i>		
3	Десмопрессин 100 мкг	бурун томчиси 100 мкг/мл 5 мл
		бурунга сепиш учун дозаланган спрей 10мкг/доза 5мл
IV. Юрак-қон томир тизимига таъсир этувчи дори воситалари		
<i>Антиаритмик воситалар</i>		
4	Аллапинин	таблетка, 25 мг
<i>Антиангинал воситалар</i>		
5	Изосорбид динитрат	спрей 1,25 мкг/доза 15 мл 300 доза
		таблетка 10 мг
<i>Антиагрегантлар</i>		
6	Ацетилсалицил кислотаси	таблетка 50 мг; 75 мг; 100 мг; 150 мг
7	Клопидогрел	таблетка 75 мг
<i>Селектив (кардиоселектив) β1-адреноблокаторлар</i>		
8	Бисопролол	таблетка 2,5 мг; 5 мг; 10 мг
<i>Кальций каналлари блокаторлари</i>		
9	Амлодипин	таблетка 5 мг; 10 мг
<i>Ангиотензинга айлантирувчи фермент ингибиторлари</i>		
10	Эналаприл малеат	таблетка 5 мг; 10 мг
<i>Ангиотензин рецепторлари антагонистлари II</i>		
11	Лозартан	таблетка 50 мг; 100 мг
<i>Гиполипидемик воситалар</i>		
12	Аторвастатин	таблетка 10 мг; 20 мг; 40 мг; 80 мг
13	Розувастатин	таблетка 10 мг; 20 мг; 40 мг
V. Тромбоцитлар агрегацияси ва қон ивишига таъсир қиладиган воситалар		
14	Варфарин	таблетка 2,5 мг; 3 мг; 5 мг
VI. Диуретик ва антидиуретик воситалар		
15	Спиринолактон	таблетка 25 мг; 50 мг; 100 мг
16	Фурасемид	таблетка 40 мг
17	Торасемид	таблетки 2,5 мг, 5 мг, 10 мг
VII. Эндокрин тизими патологияларини даволаш учун қўлланиладиган воситалар		
<i>Диабетга қарши воситалар</i>		
18	Гликлазид	таблетка 30 мг; 60 мг
19	Метформин	таблетка 500 мг; 850 мг; 1000 мг
<i>Буйрак усти беши пўстлоқ қисми гормонлари, глюкокортикоидлар</i>		
20	Беклометазон	аэрозоль 250мкг/200доз